

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AXMEDJANOV SARDORBЕК ANVAROVICH**

**XALQARO VALYUTA BOZORIDAGI ALMASHUV KURSI  
DINAMIKASINING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (PhD) диссертации**

**Content of Doctoral (PhD) Dissertation Abstract**

**Axmedjanov Sardorbek Anvarovich**

Xalqaro valyuta bozorida almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta'siri..... 3

**Ахмеджанов Сардорбек Анварович**

Влияние динамики обменного курса на международном валютном рынке на национальную экономику..... 27

**Akhmedjanov Sardorbek Anvarovich**

The impact of exchange rate dynamics in the international foreign exchange market on the national economy..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AXMEDJANOV SARDORBЕК ANVAROVICH**

**XALQARO VALYUTA BOZORIDAGI ALMASHUV KURSI  
DINAMIKASINING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/Iqt.3294raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gafurov Ubaydullo Vaxabovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentalar:**

**Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Artikov Nodirjon Yakubdjanovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tsue\\_info@tsue.uz](mailto:tsue_info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tsue\\_info@tsue.uz](mailto:tsue_info@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuzaga kelayotgan global moliyaviy beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotlarning integratsiyalashuvi jarayonlarining kengayib borishi valyuta almashuv kursi dinamikasini doimiy tarzda tahlil etish zaruratini kuchaytirmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida valyuta bozoridagi erkin tebranuvchi almashuv kursi rejimining qo'llanilishi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlarida ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha almashuv kursini prognoz qilish bilan bog'liqriskni vujudga keltirmoqda. Asosiy savdo hamkorlari mamlakatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ta'sirida almashuv kursining o'zgarishi va ularning milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga salbiy ta'sirining oldini olishda almashuv kursini turli usullar yordamida tahlil qilish muhim ahamiyat namoyon etmoqda. Ushbu yo'nalishda valyuta almashuv kursini tahlil qilish bo'yicha umumiy yondashuvni shakllantirish, doimiy monitoringni kuchaytirish, xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur institusional tizimni rivojlantirish, almashuv kursi o'zgarishini tahlil qilish bo'yicha modellarni tanlash va foydalanishni soddalashtirish, almashuv kursi dinamikasini tahlil qilish bo'yicha uslublarni nazariy jihatdan chuqur tahlil etishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Jahondagi global tendensiyalarning kuchayishi sharoitida xalqaro valyuta bozoridagi almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta'siri muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy valyutaning nominal kursi dinamikasining boshqa valyutalarga nisbatan tebranishi, buning ta'sirida kelib chiquvchi salbiy holatlar, milliy valyutaning nominal almashuv kursi oshishining eksport qilinayotgan tovarlar narxi va raqobatbardoshligiga, import to'lovlari qiymati va rezidentlarning import qilish imkoniyatiga ta'siri, milliy korxonalar tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlarning jahon narxining pasayish xavfi ortishi, mamlakatda milliy valyuta dinamikasini keskin tebranishlaridan saqlash choralarini ko'rish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda milliy eksport salohiyatini kengaytirish, mamlakatga investisiya oqimini kuchaytirishi, raqamli iqtisodiyotga o'tish borasidagi harakatlarni jadallashtirish orqali yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etishi va tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish uchun milliy valyutaning almashuv kursi dinamikasini keskin tebranishlardan saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Jamiyatimiz farovonligi yo'lidagi davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilingan dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institusional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Erkin konvertatsiyani ta'minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish yo'li o'z samaradorligini ko'rsatmoqda"<sup>1</sup>. Milliy

---

<sup>1</sup> Yangi O'zbekiston strategiyasi/Sh.M. Mirziyoyev, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-128 bet.

valyuta kursining barqarorligini va narxlar masshtabiga mos keladigan darajasini ta'minlash mamlakatdagi inflyasiya darajasini pasaytirish va tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu borada belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi chet el investisiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar asosida mamlakat hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishi, mamlakat byudjeti moliyaviy oqimlarning dastlabki tuzilmasini belgilovchi mexanizm sifatida pul massasini shakllantirishdagi ichki talabni hisobga olish, tijorat banklari bozor va likvidlilik tavakkalchiligini baholash va nazorat qilishda ochiq valyuta pozitsiyasidagi xorijiy valyutalar kurslarining o'zgarishi hamda bir valyutadagi likvidlilikni boshqa valyutaga qayta taqsimlash imkoniyatining sezilarli darajada pasayishi ta'sirini aniqlash, milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashinuv kursi dinamikasini mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirining istiqbol ko'rsatkichlarini baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020-2025yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-6021-son "Valyutani tartibga solish to'g'risida", 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877-son "Inflyasion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021 yil 25 martdagi 3281-1-son "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida", 2020 yil 15 fevraldagi 13/3-son "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarini va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Milliy valyutaning almashuv kursi barqarorligini ta'minlash va uning tashqi savdo munosabatlariga ta'siri masalalarining alohida nazariy va amaliy jihatlari A.Marshall, A.Lerner, S.Fisher, Rose, Andrew K., R.E.Caves, J.A.Frankel, R.W.Jones, A.Babula, I.Ötoker-Robe, C.Reinhart, K.Rogoff, J.Frankel, J.Williamson, M.Obstfeld, K.Rogoff, R.Hausmann, P.Wickham, H.Poirson, K.Rogoff, A.Husain, A.Mody, R.Brooks, N.Oomes, M.Fridmen, R.Mandell, F.Maxlup kabi qator xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup>A.Маршалл. «Деньги, кредит и торговля» (Money, Credit and Commerce, 1922). Lerner A. P. Money as a Creature of the State // The American Economic Review, Vol.37, No.2, (May, 1947), pp. 312—317S.Fischer. Devaluation and Inflation / The Open Economy: Tools for Policymakers in Developing Countries. Ed. by R. Dornbusch and F.L. Helmers. – The World Bank. Washington, D.C. – 1995. P.117-118, Rose, AndrewK. (1991). «Роль обменных курсов в популярной модели международной

Muammoning ayrim nazariy va amaliy jihatlari Z.Berdinazarov, T.Boboqulov, A.Vaxabov, N.Jumayev, D.Ibragimov, G.Ismailova, T.Rasulov, Sh.Rajabbayev, N.Sirojiddinov, E.Xoshimov, S.Chepel, Sh.Yakubova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan<sup>3</sup>. Lekin valyuta bozoridagi valyuta kursi dinamikasini iqtisodiyotga ta'siri masalasi O'zbekistonlik olimlar tomonidan mustaqil ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170930109-raqamli "Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi (2018-2020 yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xalqaro valyuta bozoridagi almashuv kursi dinamikasini milliy iqtisodiyotga ta'sirining nazariy asoslari va amaliy jihatlari takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

almashuv kursini shakllanishi xususidagi nazariy qarashlarni tadqiq etish;

---

торговли: выполняется ли условие Маршалла-Лернера?». Журнал международной экономики. 30 (3-4): 301-316 R.E.Caves, J.A.Frankel, R.W.Jones. World Trade and Payments. – Harper Collins, 1993. P.332., A. Babula, I. Ötker-Robe. The Evolution of Exchange Rate Regimes Since 1990: Evidence from De Facto Policies / IMF Working Paper WP/02/155. September 2002, p.16., C. Reinhart, K. Rogoff. The Modern History of Exchange Rate Arrangements: A Reinterpretation / NBER Working Paper 8963. – Cambridge, Massachusetts: National Bureau of Economic Research, 2002. J.Frankel. No Single Currency Regime is Right for All Countries or at All Times / NBER Working Paper, No.7338. – Cambridge, Massachusetts: National Bureau of Economic Research, September, 1999., J. Williamson. Exchange Rate Regime for Emerging Markets: Reviving the Intermediate Option / Institute for International Economics, Policy Analyses in International Economics, No.60, September 2000., M. Obstfeld, K. Rogoff. The Mirage of Fixed Exchange Rates // Journal of Economic Perspectives. 1995, Vol. 9, No.4; B. Eichengreen, R. Hausmann. Exchange Rates and Financial Fragility / NBER Working Paper No.7418, November 1999., P. Wickham. The Choice of Exchange Rate Regime in Developing Countries / IMF. Staff Papers. Vol.32 (June 1985), pp.248-288., P. Isard. Exchange Rate Economics. Cambridge University Press, 1985, Chapter., H. Poirson. How Do Countries Choose Their Exchange Rate Regime? / IMF Working Paper WP/01/46, 2001., K. Rogoff, A. Husain, A. Mody, R. Brooks, and N. Oomes. Evolution and Performance of Exchange Rate Regimes / IMF Working Paper WP/03/243. December 2003, pp.59-60., Фридмен М. Если бы деньги заговорили. Пер. с англ. - Москва: Дело, 1999. – 160 с, Mundell R.A. The monetary dynamics of international adjustment under fixed and flexible exchange rates // Quarterly Journal of Economics 74 (2). May 1960. P. 227-257., Machlup F. International payments, debts, and gold.– London: George Allen & Unwin, 1966. P. 7-50.

<sup>3</sup>Бердиназаров З.У. Ўзбекистон Республикаси валюта сиёсати методологиясини такомиллаштириш. Дис. автореферати. Иқт.фан.доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун. Тошкент, 2019. –Б. 75.; Ваҳобов А.В., Худякова Н.К. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. Ташкент: Университет, 2003. Том 1. стр. 53-76.; Бобоқулов Т.И. Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар. –Т.: «Fan va texnologiya», 2007. –Б. 184.; Беркинов Б. Давлатнинг макроиқтисодий сиёсати. –Т.: «Akademiya», 2007. –Б. 198.; Ваҳобов А.В., Худякова Н.К. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. Ташкент: Университет, 2003. Том 1. стр. 53-76.; Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. –Т.: «Fan va texnologiya», 2007. –Б. 232, Ибрагимов Д.Р. Дилинг операцияларини амалга оширишда валюта рискларини баҳолашни такомиллаштириш масалалари. Дис. автореферати. Иқт. фан. ном. Илмий даражасини олиш учун. Тошкент, 2010. –Б. 25; Исмоилова Г.Ф. Ўзбекистонда миллий валюта «Сўм» нинг кадрини ошириш ва барқарорлигини таъминлаш муаммолари. Дис. автореферати. Иқт. фан. ном. Илмий даражасини олиш учун. Тошкент, 2000. –Б. 26.; Расулов Т.С. Ўзбекистонда валюта муносабатларини такомиллаштиришнинг назарий-услубий муаммолари. Дис. автореферати. Иқт.фан.докторинилмий даражасини олиш учун. Тошкент, 2008. –Б. 42.; Расулов Т.С., Ражаббаев Ш.Р. Роль валютной политики в поддержании конкурентоспособности национальной экономики // Дальнейшее углубление реформ в банковско-финансовой системе Узбекистана. –М.: 2007. –стр. 74-76.; Сирожиддинов Н. Муваффақиятли валюта либерализацияси учун комплекс ислохотлар зарур // URL:<http://www.ut.uz/oz/ekonomika/nishonboy-sirozhiddinov>; Хошимов Э. Ўзбекистон Республикасида валюта бозорини эркинлаштириш йўллари. Дис. автореферати. Иқт. фан. ном. Илмий даражасини олиш учун. Тошкент, 2009. –Б. 23.; Чепель С.В. Либерализация валютного рынка в Узбекистане и перспективы укрепления потенциала экономического развития // Экономика Узбекистана. –Т., 2003. стр.74-84; Якубова Ш. Валюта дилинги назарияси ва амалиёти. –Т.: ТДИУ, 2007.

xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursi dinamikasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy tahlil qilish;

xalqaro valyuta bozorida almashuv kursi dinamikasini o'zgarishining zamonaviy tendensiyalarni o'rganish asosida xulosalar shakllantirish;

O'zbekistonda valyuta munosabatlarini shakllanishida xalqaro valyuta bozorlaridagi almashuv kursi dinamikasi o'rnini belgilash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirish;

milliy valyuta almashuv kursi o'zgarishini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri modelidan foydalanishning ahamiyatini aniqlash;

O'zbekistonda nominal almashuv kursining iqtisodiy o'sishga ta'sirini modeli tahlilini amalga oshirish orqali amaliy tavsiyalar shakllantirish;

xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursi o'zgarishini prognozini iqtisodiyot uchun ahamiyatini baholash;

xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursini baholash modelni milliy iqtisodiyotda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** bo'lib O'zbekiston valyuta bozoridagi almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta'siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib valyuta bozori almashuv kursi dinamikasini tahlili jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumlashtirish tarixiylik va mantiqiylik, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlashtirish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik tahlil va guruhlash, kompleks tahlil, sifatli tahlil bilan miqdoriy tahlilni uzviylikda olib borish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar va davlat kafilligidagi investisiya shartnomalari doirasida jalb etiladigan chet el investisiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar asosida O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanish taklifi ishlab chiqilgan;

mamlakat byudjeti moliyaviy oqimlarning dastlabki tuzilmasini belgilovchi mexanizm sifatida pul massasini shakllantirishdagi ichki talabni hisobga olish sharti ilmiy asoslangan;

tijorat banklari bozor va likvidlilik tavakkalchiligini baholash va nazorat qilishda ochiq valyuta pozitsiyasidagi xorijiy valyutalar kurslarining o'zgarishi hamda bir valyutadagi likvidlilikni boshqa valyutaga qayta taqsimlash imkoniyatining sezilarli darajada pasayishi ta'sirini aniqlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda milliy valyuta so'mning AQSH dollariga almashuv kursi dinamikasining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirining 2027 yilga qadar prognozi taklif qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mamlakat valyuta bozori tadqiq etilib, uning qonuniyatlari aniqlangan;

xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursi dinamikasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tasniflangan;



O'zbekistonda valyuta munosabatlarini shakllanishida xalqaro valyuta bozorlaridagi almashuv kursi dinamikasi o'rnini belgilash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan;

milliy valyuta almashuv kursi o'zgarishini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlangan;

O'zbekistonda nominal almashuv kursining iqtisodiy o'sishga ta'sirining modeli tahlilini amalga oshirish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursini baholash modelni milliy iqtisodiyotda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan milliy valyuta almashuv kursi o'zgarishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirining korrelyasion matrisasi orqali kursning pul massasini o'zgarishiga, to'lov balansini va savdo balansini o'zgarishiga ta'sirini aniqlash mumkinligi, eng kichik kvadratlar usulidagi modeli tahlili orqali nominal ayirboshlash kursining o'zgarish sur'ati bilan yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, mehnat unumdorligi, asosiy fondlarga investisiyalar hajmining o'zgarish sur'atlari o'rtasida ijobiy bog'liqlikni hisoblash mumkinligi, O'zbekistonda almashuv kursining iqtisodiy o'sishga ta'sirini modeli tahlili ishlab chiqilganligi bilan va ulardan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarini amaliy ahamiyati olingan natijalar, ilmiy xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardir. Tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot» va «Valyuta munosabatlari nazariyasi», fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xalqaro valyuta bozoridagi almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar va davlat kafilligidagi investisiya shartnomalari doirasida jalb etiladigan chet el investisiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar asosida O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 yanvardagi O'RQ-669-son "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik

takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida” Qonunida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 24 oktyabrdagi 30-09/1039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2022 yilda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar va davlat kafilligidagi investisiya shartnomalari doirasida jalb etiladigan chet el investisiyalari hajmini oshirish imkoni yaratilgan;

mamlakat byudjeti moliyaviy oqimlarning dastlabki tuzilmasini belgilovchi mexanizm sifatida pul massasini shakllantirishdagi ichki talabni hisobga olish shartidan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 24 oktyabrdagi 30-09/1039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida bank tomonidan almashuv kursining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini modeli tahlili orqali almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta’sirini aniqlash imkoni yaratilgan;

tijorat banklari bozor va likvidlilik tavakkalchiligini baholash va nazorat qilishda ochiq valyuta pozitsiyasidagi xorijiy valyutalar kurslarining o‘zgarishi hamda bir valyutadagi likvidlilikni boshqa valyutaga qayta taqsimlash imkoniyatining sezilarli darajada pasayishi ta’sirini aniqlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023 yil 7 martdagi 4/11-son “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida Qarori”da inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 24 oktyabrdagi 30-09/1039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida tijorat banki tomonidan milliy valyuta kursining o‘zgarishi pul massasi, savdo balansi hamda to‘lov balansi ko‘rsatkichlariga ahamiyatli ta’sirini ta’minlash orqali almashuv kursining iste’mol narxlarini indeksiga ta’sirini pasaytirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda milliy valyuta so‘mning AQSH dollariga almashuv kursini dinamikasining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirining 2027 yilga qadar prognozidan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 24 oktyabrdagi 30-09/1039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida bank tomonidan nominal ayirboshlash kursining o‘zgarish sur’ati bilan yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, mehnat unumdorligi, asosiy fondlarga investisiyalar hajmining o‘zgarish sur’atlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ta’minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 17 ta jumladan 4 ta xorijiy va 13 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola va xorijiy jurnallarda 2 ta maqolalar nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 133 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursini shakllanishining nazariy asoslari**» deb nomlanib, almashuv kursini shakllanishiga oid nazariy qarashlar o'rganilgan, xalqaro valyuta bozorlarida almashuv kursi dinamikasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tasniflangan, iqtisodiyotni boshqarishda valyuta kursi va tanlangan kurs rejimining o'rni va roli ochib berilgan.

Muallifning fikricha, mazkur qoida XX asrning 80-yillariga qadar amal qildi. Haqiqatdan ham, 1944 yilda tashkil topgan uchinchi jahon valyuta tizimida AQSH dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro zaxira valyutalar maqomi berilgan bo'lsada, amalda AQSH dollari xalqaro zaxira valyutasiga aylanib qoldi. Ya'ni, amaldagi jahon valyuta tizimining ishtirokchisi bo'lgan boshqa barcha mamlakatlarning milliy valyutalarining kursi AQSH dollariga nisbatan belgilanadigan bo'ldi. Bundan tashqari, AQSH dollarining 1944 yildan 1974 yilga qadar qat'iy belgilangan narx bo'yicha (1 unsiya=35 dollar) cheklovlarisiz oltinga almashtirib berilishi va xalqaro miqyosda qat'iy belgilangan kurs rejimining joriy etilishi AQSH dollariga bo'lgan yuksak ishonchni ta'minladi. Ammo 1976 yilda oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallangandan so'ng AQSH dollari kursining tebranishlari kuchaydi, bu esa, dollardan qochish tendensiyasini yuzaga keltirdi. Buning ustiga, yevroni muomalaga kiritilishi Yevropa valyuta tizimiga a'zo mamlakatlarning valyuta siyosatini AQSH hukumati va Federal zaxira tizimining valyuta siyosatidan mustaqilligini ta'minladi.

Xalqaro valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun bu bozorni yaxshi tashkil etilgan va rag'batlantirilgan tahlil tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Jahon valyuta bozorini tahlil qilish tizimi deganda, valyuta bozori holatini taxlil qilishning kompleks usul va yo'llari hamda valyuta kurslarini harakatini bashorat qilish tushuniladi. Boshqacha aytganda, jahon valyuta bozorini tahlil qilib borish va valyuta kurslarini bashorat qilish valyuta operatsiyalari samaradorligini ta'minlash va umuman valyuta tizimini barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon valyuta bozorini tahlil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

valyuta kurslari dinamikasini bashorat qilish;

valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda xatarlarni kamaytirish;  
valyuta bozorini boshqarish samaradorligini milliy va xalqaro darajadagi muvofiqlashtiruvchi davlat institutlari tomonidan amalga oshirish.

Xalqaro valyuta bozorini tahlilida ko'rsatib o'tilgan barcha maqsadlarni ikki guruhga jamlash mumkin:

bozor ishtirokchilari (banklar, korporatsiyalar, fondlar, suveren davlatlar va boshqalar) tomonidan valyuta kurslarini to'g'ri bashoratlaganda foyda olish yoki zararni oldini olish;

davlat va nodavlat ixtisoslashgan institutlari tomonidan valyuta bozori samaradorligini oshirish.

Muallifning fikricha, milliy emissiyaning ko'payishi milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib keladi, mamlakat foiz stavkalarining ko'tarilishida esa valyutani ushlab turish holati kuzatiladi.

Valyuta kursini Keyns nazariyasiga ko'ra modellashtirish joriy va kapital hisobvarag'i o'zgarishlar darajasiga qarab aniqlanadi. Valyuta kursini keynscha uslubda aniqlashning rivojlanishi to'lov balansiga ta'sir etuvchi boshlang'ich va o'zgaruvchi asoslar miqdorining ortishi natijasida ro'y beradi. Keynsning ochiq iqtisodiyot modeli doirasida valyuta kursini aniqlashda, to'lov balansini muvozanatlashtirishga asoslangan valyuta bozorini tenglashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Valyuta kursi o'zgarishining kapital harakatlari uchun ta'sirini baholash qiyin hisoblanadi. Xalqaro kreditlarning ba'zi turlari xalqaro savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liqligi uchun moliyaviy oqimlar eksport va importdagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi (importni yetkazib berish bo'yicha avans to'lovlari, eksportni amalga oshirish uchun savdo krediti va x.k.). Kapital oqimining boshqa turlari (uzoq muddatli kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar) valyuta kursi bilan bevosita bog'liq emas. Shuning bilan birga valyuta kursi pasayganda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmini ortadi, milliy valyuta kursi pasayganda xorijiy investor zarur resurslarga nisbatan arzon erishish imkoniyati tug'iladi. Portfel investisiyalarni davlatlararo harakatiga davlatlardagi aktivlarni foydaliligini har xilligi va xatarlar omili ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, investorlar valyuta kursidagi bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni inobatga olishlari kerak bo'ladi degan xulosaga kelingan.

Savdo aylanmasining yangi valyuta kursiga munosabatiga qarab tashqi savdoga qo'yiladigan boshqa soliq tushumlari, eksport va import operatsiyalarini olib borish uchun beriladigan lisenziyalarni sotishdan tushadigan tushumlar milliy valyutadagi miqdorini o'zgarishiga olib keladi deb fikr yakunlangan.

Shuningdek, valyuta kursi o'zgarishining yalpi talabga ta'siri yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Bir tarafdin, devalvatsiya oqibatida sof eksport oshadi va u yalpi talabni oshiradi. Ikkinchi tomondan, devalvatsiya inflyasiyani rag'batlantiradi, bu esa pul massasining real bahosini pasaytiradi. Buning natijasida real iste'mol xarajatlari va investisiyalar hajmi, nominal foiz stavkasini oshishi oqibatida, kamayadi. Shunday qilib, milliy valyutani devalvatsiyasi yalpi talabni umumiy hajmini o'zgartirmaydi, balki, uning tarkibida o'zgarishlarga olib keladi deb xulosa qilingan.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish va davlat (jamiyat) mulkini boshqarish samaradorligini oshirish uchun resurs bazasini kengaytirish va foydalanilmayotgan resurslarni mobilizatsiya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri davlat-xususiy sherikchiligi (DXSH) hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotning ko‘pchilik sohalarida keng foydalanilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik yordamida investisiyalar yo‘l infrastrukturasi, aeroportlar, temir yo‘llar, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim, tibbiyot sohalariga yo‘naltirilgan. Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha dunyoda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH peshqadamlik qilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari boshqa mamlakatlarda ham rivojlanmoqda, MDH mamlakatlarida bunday loyihalar Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonda rivojlanmoqda.

DXSHdan davlat, tadbirkor va aholini manfaatdorligini inobatga oladigan bo‘lsak, investorlar o‘zlarining mablag‘ini investisiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, tadbirkorlar o‘zlarining tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladilar, davlatning manfaatdorligibevosita aholini ijtimoiy muammolarini hal etilishi bilan manfaatdorligi bilan qo‘shilib ketadi. Chunki davlat byudjetiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushishi ortishi bilan birgalikda mamlakatda ishsizlarning ish o‘rinlariga ega bo‘lishi evaziga jamiyatimizda kambag‘allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati yaratiladi.



### **1-rasm. Davlat xususiy sherikchilik ishtirokchilari o‘rtasidagi bog‘liqlik<sup>4</sup>**

1-rasmda keltirilgan ishtirokchilarni bevosita ta‘lim jarayoniga tadbiiq qilinadigan bo‘lsa, hozirgi paytda juda ko‘p yoshlarni ta‘lim bilan qamrab olish masalasi o‘ta dolzarb bo‘lib turganligi bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Ushbu yoshlarni ta‘lim bilan qamrovini oshirishga oid ishlarni paysalga solib bo‘lmaydi. Shu tufayli investorlar va davlatning imkoniyatlarini birlashtirgan holda tezlik bilan ta‘lim sohasining sonini ko‘paytirishga va bir vaqtning o‘zida moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga to‘g‘ri kelmoqda. Shu tufayli, ushbu ishtirokchilar ichida

<sup>4</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

aholining mavjudligi, aynan ta'lim sohasini rivojlantirishdan ikki tomonlama manfaatdorligini ta'minlaydi. Birinchidan o'zlarining mablag'larini ishga solib, foyda olishga intilsa, ikkinchidan, yoshlarning ta'lim bilan qamrovini oshirishga va ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, ushbu sub'yektlarning birlashishida manfaatdorlik mavjud.

Investison jozibadorlikni yanada oshirish bo'yicha mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda imzolangan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'RQ-537-sonli Qonuni qabul qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar doirasida jalb etiladigan chet el investisiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishi valyuta bozoridagi o'zgarishlarga nisbatan riskni kamaytirish imkonini beradi. Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 yanvardagi O'RQ-669-sonli Qonuniga taklif berilgan.

### 1-jadval

#### «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi 841-XII-sonli Qonunga kiritilgan taklif<sup>5</sup>


Huquqiy-me'yoriy xujjat nomi	Yangi Qonundagi tahrir	
<p>O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.01.2021 yildagi O'RQ-669-son DAVLAT-XUSUSIY SHYERIKLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH, SHUNINGDEK AYRIM QONUN HUJJATLARINI O'Z KUCHINI YO'QOTGAN DEB TOPISH HAQIDA</p> <p>Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 1 dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 19 dekabrda ma'qullangan</p>	<p>O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 mayda qabul qilingan «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi 841-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan O'RQ-537-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 10, 672-modda) 9-moddasining uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:</p>	<p>Alohida hollarda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar doirasida jalb etiladigan chet el investisiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi.</p>

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, Prezident qarorlari asosida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar va Hukumat orqali jalb etilgan chet el investisiyalari loyihalari bo'yicha O'zbekistonda realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxleri chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishi mumkin.

<sup>5</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlili**» deb nomlanib, almashuv kursi dinamikasi tendensiyasining valyuta munosabatlarini shakllanishiga ta'siri tadqiq etilgan, milliy valyuta almashuv kursi o'zgarishini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganilgan, O'zbekistonda nominal almashuv kursining iqtisodiy o'sishga ta'sirini modelli tahlil qilingan.

Tadqiqotda valyuta kursining uzoq muddatli va o'rta muddatli omillari katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu omillar ta'sirida shakllangan valyuta kursi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ko'rib chiqishimiz muhim hisoblanadi. Respublikada birjadan tashqari valyuta bozorini rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishi yuzasidan ketma-ketlikda zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda so'm mablag'larni erkin ayriboshlanadigan valyutaga konvertatsiyalash bevosita vakolatli banklar tomonidan amalga oshirilmoqda.



**2-rasm. USD/UZS valyuta juftligi ayriboshlash kursining umumiy dinamikasi (1996-2022 yy.)<sup>6</sup>**

Hozirgi vaqtgacha O'zbekiston Respublikasida ichki valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilgan. Buning natijasida ishlab chiqilgan bosqichma - bosqich chora -tadbirlar majmui doirasida avval faqatgina O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida so'm mablag'larni xorijiy valyutaga ayriboshlashning sezilarli qismi birjadan tashqari valyuta bozoriga ham ko'chirildi.<sup>7</sup>


Dissertatsiyada mamlakatdagi valyuta almashinuv kursi dinamikasining statistik tahlili amalga oshirilgan (2-rasm). Valyuta kurslari dinamikasida, 1996 yilda milliy valyuta kursi 36,5 so'm bo'lgan bo'lsa, 2000 yilga kelib esa, 142,8 so'mni tashkil etdi. Bunda, 5 yillik tendensiya qariyb 3,5 barobarga narxning ko'tarilishini kuzatishimiz mumkin. 2010 yilga kelib, valyuta kursining almashinuv

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari asosida [Elektron resurs]. URL: <https://cbu.uz/oz/arkhiv-kursov-valyut/dinamika-kursov-valyut/>

<sup>7</sup>Расулов Т.С. Ўзбекистонда валюта муносабатларини такомиллаштиришнинг назарий-услубий муаммолари. Ихтисослик:08.00.01 – «Иқтисодий назария». Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Т: 38-50 б.

darajasi 1 513,6 so‘mni tashkil etgan. 2015-yilda valyuta kursining devalvatsiyasi natijasida 2 424,33 so‘mga yetganligi aniqlangan.

2017 yilning yanvar-avgust oylari davomida valyuta kursining yuqori sur‘atlarda devalvatsiya qilinishi natijasida Respublika valyuta birjasidagi savdolarida milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi 31 foizga pasaydi. 2017 yilning sentyabr oyidan boshlab milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida belgilanishiga o‘tilishi hisobiga uning qiymatining keskin pasayishi hamda hisobot yilining sentyabr-dekabr oylari davomida valyuta bozorida chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro mutanosib shakllanishi natijasida mazkur davrda milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi barqarorlashib, 8049,0 – 8138,0 so‘m (1 foiz) oralig‘ida o‘zgarib turdi.



**3-rasm. Milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi (2013-2022 yy.)<sup>8</sup>**

2018 yil oxiriga kelib milliy valyutaning almashuv kursi yil boshiga nisbatan 2,7 foizga (8 120 so‘mdan 8 339 so‘mgacha) pasaygan bo‘lsa, yil mobaynida kursning minimal va maksimal miqdori o‘rtasida o‘zgarishi 7,3 foizni (avgust oyida – 7 781 so‘m, dekabr oyida – 8 348 so‘m) tashkil etdi (3-rasm).

2019 yil davomida milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi valyuta bozoridagi talab va taklifning o‘zaro nisbatidan kelib chiqib hamda xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklifga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanib bordi. Bunda valyuta bozorida talab va taklifning bir maromda oshishi sharoitida 2019 yilning birinchi yarim yilligi davomida valyuta birjasidagi savdo sessiyalarida milliy valyuta – so‘m AQSH dollariga nisbatan 2,8 foizga qadrsizlandi.

O‘tkazilgan tahlillar, muallif mazkur ko‘rsatkichlar yordamida milliy valyuta almashuv kursi o‘zgarishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirining korrelyasiya matrisasini tuzgan (2-jadvalga qarang). Bu esa, o‘z navbatida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining bog‘liqlik va ta‘sir darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

<sup>8</sup>O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma‘lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tuzilgan.



**2-jadval**

**Milliy valyuta almashuv kursi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar korrelyasiya matrisasi<sup>9</sup>**

	Nominal valyuta kursi	Pul massasi	Iste‘mol narxlar indeks	YAIM	Qayta moliyalashtirish stavkasi	Savdo balansining YAIMga nisbati	To‘lov balansining YAIMga nisbati	Tashqi qarzning YAIMga nisbati
<b>Nominal valyuta kursi</b>	1.000000	0.802712	0.365596	-0.182366	-0.396280	0.969800	0.990489	-0.674696
<b>Pul massasi</b>	0.802712	1.000000	-0.178924	0.129332	-0.735465	0.654272	0.778730	-0.253235
<b>Iste‘mol narxlar indeksi</b>	0.365596	-0.178924	1.000000	-0.009145	0.695563	0.472706	0.326757	-0.845260
<b>YAIM</b>	-0.182366	0.129332	-0.009145	1.000000	0.259922	-0.353134	-0.297012	-0.048314
<b>Qayta moliyalashtirish stavkasi</b>	-0.396280	-0.735465	0.695563	0.259922	1.000000	-0.286051	-0.448611	-0.364304
<b>Savdo balansining YAIMga nisbati</b>	0.969800	0.654272	0.472706	-0.353134	-0.286051	1.000000	0.971853	-0.741202
<b>To‘lov balansining YAIMga nisbati</b>	0.990489	0.778730	0.326757	-0.297012	-0.448611	0.971853	1.000000	-0.607025
<b>Tashqi qarzning YAIMga nisbati</b>	-0.674696	-0.253235	-0.845260	-0.048314	-0.364304	-0.741202	-0.607025	1.000000

Olingan natijalar asosida, milliy valyuta kursining o‘zgarishi pul massasi (0,80), savdo balansi (0,96) hamda to‘lov balansi (0,99) ko‘rsatkichlariga juda katta ta’siri mavjudligi aniqlandi. Qolaversa, tahlilimiz almashinuv kursining iste‘mol narxlar indeksiga (0,36) ta’siri pastligini ko‘rsatdi.

Quyida biz milliy valyuta almashinuv kursining qo‘shimcha boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga modeli tahlili bajarilgan. Bunda : *NCR* – almashinuv kursi, *MO* – pul massasi, *CPI* – iste‘mol narx indeksi, *GDP* – yalpi ichki mahsulot, *INT* – qayta moliyalashtirish foizi, *TB* – savdo balansi, *PB* – to‘lov balansi, *FD* – tashqi qarz singari ko‘rsatkichlaridan modelimizda foydalandik.

Shu bilan birga, milliy valyuta almashinuv kursining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga tahlil etishda o‘zaro korrelyasiya matrisasi tuzilgan. Korrelyasiya matrisasiga ko‘ra, almashinuv kursi bilan pul massasi (0.92), foiz stavkasi (0.98) va tashqi qarz (0.99) yuqori korrelyasiya darajasini namoyon etdi.

**3-jadval**

**Valyuta almashinuv kursinig makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri<sup>10</sup>**

	NCR	MO	CPI	GDP	INT	TB	PB	FD
<b>2017</b>	8 120	70 816	14	266 648	14	-1 459	1 478	17 235
<b>2018</b>	8 340	80 165	14	334 477	16	-5 449	-3 593	18 750
<b>2019</b>	9 508	91 266	15	448 979	16	-6 374	-3 366	26 331
<b>2020</b>	10 477	107 604	11	539 384	14	-6 044	-3 007	36 333
<b>2021</b>	10 838	140 184	10	646 876	14	-8 850	-4 583	41 619

<sup>9</sup> E-views 10 ver dasturi yordamida tadqiqodchi tomonidan tuzilgan.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma’lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tuzilgan.

Qolaversa, almashinuv kursi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar modelini kengaytirish maqsadida almashinuv kursi va yalpi ichki mahsulot o'sish darajalarini ham keltirgan holda ularni o'nlik logarifmik ko'rinishga keltirildi. Unda ma'lumotlar to'liqligi va ishonchligi ta'minlash uchun 2017 yildan 2021 yilgacha kvartal oralig'ida ma'lumotlar to'plangan. *Bunda ER - nominal almashinuv kursi, EG - yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari, LNER - logarifmik nominal almashinuv kursi LNEG - logarifmik yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari.*

O'zgaruvchilarni testdan o'tgazganimizdan so'ng, biz eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda regressiya modelni shakllantirildi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Almashuv kursining iqtisodiy o'sishga ta'sirini modeli taxlili<sup>11</sup>

Eng kichik kvadratlar usuli				
O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Std. Xato	t-statistika	Ehtim.
MO	-0.016391	0.007860	-2.085397	0.2847
INT	118.2744	61.02756	1.938050	0.3033
FD	0.158924	0.020653	7.694933	0.0823
C	4853.962	987.5496	4.915157	0.1278
R-kvadrat	0.997736	O'rt bog' o'zgaruvchi		9456.352
R-kvadrat to'g'ri	0.990942	S.D. bog' o'zgaruvchi		1223.222
Regressiya std xatosi	116.4159	Akaike me'zoni		12.34278
Kvd qoldiqlar yig'indi	13552.67	Schwarzme'zoni		12.03033
Log ehtimollik	-26.85695	Hannan-Quinn me'z.		11.50419
F-statisika	146.8723	Durbin-Watsonstat.		3.570208
Ehtm(F-statistika)	0.060565			

*Bunda : NCR – almashinuv kursi, MO – pul massasi, INT – qayta moliyalashtirish foizi, FD – tashqi qarz, S - o'zgaruvchi singari ko'rsatkichlaridan modelimizda foydalandik.*

Eng kichik kvadratlar usulidagi modelimiz (5-jadval) natijalari yuqori o'rindagi ilmiy fikrlarimizni tasdiqlagan holda uning *determinatsiya koeffitsiyentini*  $R^2 = 0.99$  daraja namoyoni etdi. *F-statistika*– 146,87 ni, *regressiya standart xatolig'ini* – 116,41 ni, *Akaike va Schwarz zme'zonlari* ketma-ketlik bilan – 12,34 va 12,03 darajalari aniqlandi. *Kvadratlar qoldiqlari yig'indisi* – 13 552.67, *ehtimollik darajasi (F-statistika)* – 0.06, *Durbin-Watson statistikasi* – 3.57, *Hannan-Quinn me'zoni* – 11.50 darajalari bilan yuqori bog'liqlikni ko'rsatdi.

Undan ko'rinib turibdiki, nominal ayirboshlash kursining o'zgarish sur'ati bilan yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, mehnat unumdorligi, asosiy fondlarga investisiyalar hajmining o'zgarish sur'atlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Boshqa tarafdin devalvatsiyaning savdo balans holatiga cheklangan ta'siri haqidagi oldingi taxmini tasdiqlaydi va ba'zi iqtisodchilarning valyuta kursi dinamikasi va sanoat ishlab chiqarish sur'atlari o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qligi haqidagi fikrlarini rad etadi.

<sup>11</sup> E-views 10 ver dasturi yordamida tadqiqodchi tomonidan tuzilgan.

Valyuta kursi va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlikni muhokama qilishdan oldin valyuta kursi va YAIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston real YAIM (*R GDP*) 2016 yil to'rtinchi choragida 47 816 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, nominal YAIM (*N GDP*) esa 43 278 mln. so'm bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 2019 yil to'rtinchi choragida 529 391 mln. so'm tashkil etgan bo'lsa, nominal YAIM esa 448 979 mln. so'm bo'lgan. 2021 yil to'rtinchi choragida O'zbekiston real YAIM 734 587 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, nominal YAIM esa 646 876 mln. so'm bo'lgan.

Ayirboshlash kursining iqtisodiy faoliyatga ta'siri ham yalpi talab, ham yalpi taklif orqali kuzatiladi. Yalpi talab nuqtai nazaridan YAIMni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Y = C + I + G + X - U \quad (1)$$

Bunda, *Y* – YAIM, *C* – ist'yemol, *I* – yalpi investisiya, *G* – davlat xarajatlari, *X* – eksport, *U* – import.

Nazariy jihatdan so'mning qadrsizlanishi eksport hajmining oshishiga va importning qisqarishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida YAIMning o'sishiga olib keladi.<sup>12</sup>

Boshqa tomondan, so'mning qadrsizlanishi narxlarning oshishini nazarda tutadi, bu esa yalpi talabning qisqarishiga olib keladi (iqtisodiy faollikning pasayishiga olib keladi).

Yalpi taklif nuqtai nazaridan YAIMni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Y = f(K, L, T) \quad (2)$$

Bunda, *Y* – YAIM, *K* – kapital, *L* – ishchi kuchi, *T* – texnologik progress.

Yalpi taklif nuqtai nazaridan so'mning qadrsizlanishi import qilinadigan ishlab chiqarish tovarlari narxining oshishiga va natijada yalpi taklifning kamayishiga olib keladi (YAIMning pasayishiga olib keladi).<sup>13</sup>

Yuqoridagi tenglamalarga asoslanib, valyuta kursini izohlovchi o'zgaruvchi sifatida ko'rib, so'm kursi va YAIM o'rtasidagi bog'liqlikni baholashga harakat qilaylik. Buning uchun yalpi talab va taklif orqali YAIMga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

Talab tenglamasida (3) foydalaniladigan o'zgaruvchilar alohida funksiyalar sifatida ko'rsatilishi mumkin - *C(Y)*, *I(R)*, *G(G)*, *X(R,E)*, *U(R,E)*. Shunda quyidagi formulani keltiramiz:

$$Y = I(R, G, E) \quad (3)$$

Bunda: *Y* – YAIM, *R* – nominal foiz stavkasi, *G* – davlat xarajatlari, *E* – nominal almashinuv kursi.

Nominal foiz stavkalari o'rniga biz foiz stavkalariga teskari proporsional bo'lgan *M0* pul agregatini (muomaladagi naqd pul) oldik. Demak, talab nuqtai nazaridan YAIM quyidagi regressiya tenglamasi sifatida ifodalanishi mumkin:

$$Y = \alpha_1 + \beta_1 * M0 + \gamma_1 * E + \delta_1 * G + \varepsilon_1 \quad (4)$$

Bunda: *Y* – YAIM, *M0* – muomaladagi naqd pul, *E* – nominal almashinuv kursi, *G* – davlat xarajatlari,  $\alpha_1, \beta_1, \gamma_1, \delta_1$  – regressiya koeffitsiyentlari,  $\varepsilon_1$  – regressiya qoldiqlari.

